



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10896127>

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

katta o'qituvchisi (PhD)

axmadjonov.nurbek@bk.ru

Zamonaviy tilshunoslik fanida aynan nemis tilidagi so'zlarning formal xususiyatlarini til tizimi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkonini beruvchi to'plangan konseptual va eksperimental materialni tahlil qilishga asoslangan ob'ektiv yondashuvlar mavjud. Til faktlarini tahlil qilish so'zning fonemik, bo'g'in va urg'u-ritmik tashkil etilishi darajasidagi eng xarakterli xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. German tillaridagi so'z birikmalarni tuzilishi, yasalishi, o'ziga xosligi aynan nemis tilida juda yaxshi rivojlangan. Notanish so'zlarni oson tushunish uchun, uning o'zagini, yasalishini, xususiyatlarini hamda old qo'shimchalarning ahamiyatini bilish zarur hisoblanadi [1-78].

So'z yasaliş usuli deganda odatda so'z birikmalari, old qo'shimchali o'zakdagi o'zgarishlar tushuniladi. So'z yasalişining vositalari aniq morfemlar bo'lib, ular yangi so'zlarning yasalişiga va ma'no o'zgarishiga hizmat qiladi. Quyidagi maqolamizda old qo'shimchalar yordamida yangi so'zlarni yasash usuliga to'xtalib o'tmoqchimiz.

“Ge” old qo'shimchasining mazmun moxiyati shundan iboratki, so'z o'zagi so'z yasovchi old qo'shimcha va yarim old qo'shimcha sifatida hosil bo'ladi hamda ayrim so'zlarning leksik ma'nosi butkul o'zgaradi. Maqolada ba'zi turdosh otlarga hamda fe'llarga “Ge” old qo'shimchasini qo'shish yordamida ba'zi so'zlarning ma'no o'zgarishini ko'rishimiz mumkin.

Old qo'shimchali fe'llar nemis tilida lug'at boyligini boyitishga, yangi fe'llar bilan tanishishga yoki to'ldirishga xizmat qiladi. “Ge” old qo'shimchasi asosan sredniy roddagi otlarni nomlash ba'zan insonlarning ismi shariflarini ifodalashda ham qo'llanadi. Ge old qo'shimchasi bilan boshlangan atoqli ismlarni jumladan, Geynrix, Geyne, Gerbert, Gerxard kabilarni kundalik hayotimizda yoki matnlarda tez- tez uchratamiz [2.191].

Taniqli nemis tilshunoslarining fikricha, “Ge” old qo'shimchasi qadimgi german tilida asosan murakkab so'zlarda qo'llanishini ta'kidlashadi. “Ge” old qo'shimchasi asosan ish harakatning tugallanganligini bildirish maqsadida fe'llarga shuningdek, ravshidoshlarga ham qo'shib keladi [3. 158].

Hozirgi kunda “Ge” old qo'shimchasi fe'llarda so'z yasovchi vosita sifatida



ham faol qo'llanib keladi. "Ge" old qo'shimchasining yana bir muhim jixati fe'llarga qo'shilganda yaqin tugallangan perfekt zamonini ifodalab keladi. Biz bunday fe'llarni suhbatlarda badiiy asarlarda yoki ilmiy matnlarda uchratishimiz mumkin. Asosan kundalik muloqot jarayonida tugallangan voqea hodisalarni aytib berishda ishlatiladi. Masalan: **gebären, gedeihen, gelingen, genesen, geschehen, gewähren, gewinnen, (sich) gewöhnen** kabi fe'llarni boshlang'ich ma'nosi umuman o'zagidan farq qiladigan bir qator so'zlarda ham ko'rish mumkin: **gebieten, gehören, geraten, gestehen**. Ayrim fe'llar otga aylanganda o'zagidagi ma'nolarini o'zida semantik jixatdan saqlab qoladi: **Gedanke, Getränk, Gehorchen, sr: denken, trinken, horchen** kabi fe'llarning ma'nolariga mos tushadi. [4. 305-306].

Quyidagi jadvalda « Ge» old qo'shimchasi yordamida ot yasalishiga e'tibor beraylik.

schenken	das Geschenk	sovg'a qilmoq	Sovg'a
helfen	der Gehilfe	yordam bermoq	Yordamchi
rauschen	das Geräusch	shovqin solmoq	Shovqin
schicken	das Geschick	yubormoq, jo'natmoq	Taqdir (Chaqonlik)
schützen	das Geschütz	ximoya qilmoq	Qurol, Zambarak
trinken	das Getränk	ichmoq	Ichimlik
weben	das Gewebe	to'qimoq	To'qima, Mato
fechten	das Gefecht	qilichbozlik qilmoq	Jang
fühlen	das Gefühl	sezmoq	Sezgi, Xis
hören	das Gehör	eshitmoq	Eshitish, Tinglash
lachen	das Gelächter	kulmok	Kulgi
lieben	das Geliebte	sevmok	Oshiq
malen	das Gemälde	rasm solmoq	Rasm, Surat
mischen	das Gemisch	aralastirmoq	Aralashma
riechen	das Geruch	xidlamoq	Xid bilish
singen	der Gesang	ashulla aytmoq	Ashulla, Qo'shiq
schimpfen	das Geschimpfte	so'kmoq	Xaqorat, So'kish
drucken	das Gedruckte	nashr qilmoq	Bosish, Bosma
fangen	der Gefangene	tutmoq	Asir, Maxbus
bauen	das Gebäude	qurmoq	Bino, Qurilish
mengen	das Gemenge	aralastirmoq	Qorishma
sprechen	das Gespräch	gapirmoq	Suxbat
prägen	das Gepräge	zarb qilmoq, iz qoldirmoq	Iz, Tamg'a, Belgi
prangen	das Gepränge	yaltiramoq, namoyon bo'lmoq	Dabdala, Bashanglik
schaden	der Geschädigte	zarar yetkazmoq	Zarar Yetkazish
schmecken	der Geschmack	tatib ko'rmoq	Tab, Did
schmieren	das Schmiere	moy surtmoq	Siqma moy
schreien	das Geschrei	qichqirmoq	Qichqir, Xayqiriq



schwätzen	das Geschwätz	vaysamoq, gap sotmoq	Safsata
denken	der Gedanke	o'ylamoq	Fikr, Aql, O'y
backen	das Gebäck	yopmoq (non)	Pirok, Shirinlik
bilden	das Gebilde	tuzmoq, talim bermoq	Asar, Tuzilish
bieten	das Gebiet	taklif qilmoq	Viloyat, Soxa
bitten	das Gebet	iltimos qilmoq	Nomoz O'qish, Ibodat
bimmeln	das Gebimmel	jaranglamoq	Jaranglash
beißen	das Gebieß	tishlamoq	Suniy Tish
brechen	das Gebräch	sindirmoq	Mo'rt, Sinish
brauchen	der Gebrauch	kerak bo'lmoq	Qo'llash, Foydalanish
decken	das Gedeck	dasturhon yozmoq	Ovqatlanish anjomi
drängen	das Gedränge	qismoq, (siqib chiqarmoq)	To'polon, Tiqilinch
fahren	das Gefahr	jo'nab ketmoq	Havf, Hatar
spotten	das Gespött	masxara qilmoq	Masxara Qilish
summen	das Gesumm	g'uvillamoq	G'uvillash
sponsern	das Gespons	mablag' chikarmoq	Mablag' Chikarish
stöhnen	das Gestöhn	ingramoq	Ingrash, Nola
wachsen	das Gewächs	o'smoq, unmoq	O'simlik, O'simta
schworen	der Geschworene	qasam ichmoq	Qasamyod Qilish
winden	das Gewinde	ip o'ramoq	O'ymakorlik
laufen	das Gelaufe	yugurmoq	Yugurish, Chopish
lenken	das Gelenk	boshqarmoq (mashina haydamoq)	Bo'g'in
lauten	das Geläute	tovush chiqarmoq	Qo'ng'iroq, Ovoz
lassen	das Gelass	qoldirmoq, tashlab ketmoq	Hona, Uy
klatschen	Geklatsch	olqishlamoq, qarsak chalmoq	Qarsak chalish
packen	das Gepäck	o'ramoq, joylamoq	Yuk, Jo'natma
rinnen	das Gerinne	oqmoq, chakka o'tmoq	Ariq, Zovur
sterben	das Gestör	o'lmoq, vafot etmoq	Marhum
stöbern	das Gestober	titkilamoq, kavlamoq	Qor bo'roni, Izg'irin
rumpeln	das Gerumpel	g'ulduramoq	Eski-tuski
kratzen	das Gekrätz	tirnamoq	G'ijirlash, Tirnash
kräuseln	das Gekräusel	chirmashmoq	Jimirlash, Mavj
labbern	das Gelabber	ko'tarib ichmoq	Ichish (ovoz chiqarib)
lispeln	das Gelispel	pichirlamoq	Pichirlash
mahlen	das Gemahl	tuymoq, yanchmoq	Umr yo'ldosh
machen	das Gemacht	tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq	Suniy, Yasama
metzeln	das Gemetzel	yo'q qilmoq, tugatmoq	Qonli urush, Qirg'in
motzen	das Gemotze	pala-partish ish qilmoq	Ming'irlash,



pfeifen	das Gepfeife	chalmoq	Hushtak, Chalish
pflügen	die Gepflegenheit	parvarish qilmoq	Parvarish qilish
plätten	das Geplät/scher	dazmollamoq	Shapillash, Shaloplash
raten	das Gerät	maslaxat bermoq	Asbob, Anjom
richten	das Gericht	qaratmoq, to'g'rilab qo'ymoq	Sud Qilish, Ovqat
rufen	das Gerufe	Baqirmoq	Qichqiriq
rüsten	das Gerüst	qurollanmoq	Minbar, Ko'prik taxtasi
schlagen	das Geschläge	urmoq, bermoq	Bo'zuq
schleifen	das Geschleif	silliqlamoq	Silliqlash
schleppen	das Geschleppe	sudramoq ,tortmoq	Tortish
schießen	das Geschöß	otmoq, o't ochmoq	O'q, Miltiq o'qi
schöpfen	das Geschöpf	olmoq, to'plamoq (bilim)	Moxiyat, Ma'no
schwären	das Geschwür	qasamyod qilmoq	Jaroxat, Yara
sperren	das Gesperre	qulflamoq	To'sin
spinnen	das Gespenst	ip egirmoq	Xyol, Timsol
sprengen	das Gesprenge	portlamoq	Uzilish
stänkern	das Gestänker	xalaqit bermoq	Hid (qo'lansa, badbo'y)
stecken	das Gesteck	kirgizmoq, tiqmoq	Gullar kompozitsiyasi
stürmen	das Gestürmen	qattiq to'lqinlanmoq	Gapirish (dialekt)
tumpeln	das Getümpel	botqoq	Ko'lmak
walten	die Gewalt	hukumronlik qilmoq	Xokimiyat, Kuch
wenden	das Gewand	qayrilmoq	Libos
waschen	das Gewäsch	yuvmoq	Yuvish
werben	das Gewerbe	reklama qilmoq	Kasb, Hunar
wimmeln	das Gewimmel	g'ij-g'ij qaynamoq, to'lib toshmoq	Olamon, Xaloyiq
verwirren	das Gewirr	chigallashtirmoq	Chigallik
wölben	das Gewölbe	haydamoq	Yer To'la
wuseln	das Gewusel	g'imirlamoq	Harakat (ortiqcha)
gerinnen	das Gerinsel	sovuq qotmoq	Ariq, Daryo
rennen	das Gerank	dirijyorlik qilmoq	Pechak

Hulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, so'z yasovchi usullardan eng mahsuldor old qo'shimchalar bu "Ge" old qo'shimchali fe'llar xisoblanadi. Mazmun jihatidan old qo'shimchani so'z o'zagida bog'lanishi, shu so'zning leksik ma'nosini o'zgartiradi. "Ge" old qo'shimchali fe'llar asosan turdosh otlarga qo'shilishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Schmidt, W. Deutsche Sprachkunde / W. Schmidt. 7. Aufl. – Berlin, 1972. S-232



-
2. Jung, W. Grammatik der deutschen Sprache / W. Jung. – Leipzig, 1966. S - 204
 3. Naumann, B. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache / B. Naumann. – Tübingen, 1972. – 172 S.
 4. Sherba, L. V. Ocheredniye voprosi yazikoznaniya / L. V. Sherba. – 5 Vip. – M., 1945. S - 180
 5. Axmadjonov Nurbek, Islomjonova Jasmina. Badiiy matnda allyuziv antroponimlarning xususiyatlari. Journal of advanced research and stability volume: 03 issue: 01 | jan - 2023 issn: 2181-2186
 6. Nurbek Akhmadjonov, Signs of a precedent name (example of the name "Berliner Mauer") "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1
 7. Нурбек Ахмаджонов Шериятда қўлланилган поэтонимланинг функционал семантик вазифалари. Raqamli texnologizalar davrida xorijiz tillarni o'qitishning dolzarb muommolari. Xalqaro ilmiy amaliy anjumanlar to'plami. Fergana State University Conference, 209. Retrieved from <https://conf.fdu.uz/index.php/conf/article/view/2949> Jan 17. 2024: B.419-421
 8. Nurbek Axmadjonov BADIIY MATNDA BA'ZI ONOMASTIK BIRLIKLARNING PRETSEDENT NOMLAR SIFATIDA QO'LLANISHI. Raqamli texnologizalar davrida xorijiz tillarni o'qitishning dolzarb muommolari. Xalqaro ilmiy amaliy anjumanlar to'plami. Fergana State University Conference, 209. Retrieved from <https://conf.fdu.uz/index.php/conf/article/view/2949> Jan 17. 2024: B.219-224
 9. Nurbek Axmadjonov NEMIS XALQ ERTAKLARIDAGI ALLYUZIV NOMLARNING FUNKSIONAL SEMANTIK XUSUSIYATLARI. Raqamli texnologizalar davrida xorijiz tillarni o'qitishning dolzarb muommolari. Xalqaro ilmiy amaliy anjumanlar to'plami. Fergana State University Conference, 209. Retrieved from <https://conf.fdu.uz/index.php/conf/article/view/2949> Jan 17. 2024: B. 225-230